

XX ASRNING 2-YARMIDA O‘ZBEKISTONDA TASVIRIY SAN’ATNING RIVOJLANISHI

Jamolov Jamshid Jamol o‘g‘li
Qarshi Davlat universiteti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada O‘zbekistonda san‘at va madaniyatning rivojlanishi o‘zining qadimiy tarixiga ega bo‘lid, u bir necha asr davomida va turli bosqichda san‘at, madaniy merosimizni boyitdi. Mana shu merosning tarixiy bosqichlari har tomomnlama tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar : rassomchilik, grafika, haykaltaroshlik va foto san‘ati ?tasviriy, amaliy, miniatyura san‘ati an‘analarini, realizm, milliy romantizm, dekorativizm.

ABSTRACT

In this article, the development of art and culture in Uzbekistan has its own ancient history, which enriched our artistic and cultural heritage for several centuries and at different stages, the historical stages of this heritage are analyzed in detail.

Key words: painting, graphics, sculpture and photography - traditions of fine, practical, miniature art, realism, national romanticism, decorativeness.

KIRISH

Tasviriy san‘at - san‘atning asosiy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, rassomchilik, grafika, haykaltaroshlik va foto san‘ati sohalarni qamram oladi. O‘zbekistonda mustaqillik yillarida san‘atning bu turi keng rivojlantirildi va yangi an‘analar bilan boyib bordi. Bu davr tasviriy san‘at badiiy uslublar ko‘lami kengligi bilan ajralib turadi. Akademik realizm, milliy romantizm, dekorativizm kabi usullar keng qullanildi. O‘zbekistonda san‘at va madaniyatning rivojlanishi o‘zining qadimiy tarixiga ega. U bir necha asr davomida va turli bosqichda san‘at, madaniy merosimizni boyitdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 23 yanvardagi Farmoni bilan O‘zbekiston Badiiy Akademiyasi tuzildi. [1]. Akademiya o‘zbek xalq boy madaniy merosini, tasviriy, amaliy, miniatyura san‘ati an‘analarini rivojlantirish, jahon san‘ati tajribalarini ijodiy o‘zlashtirish, san‘at nazariyasi va amaliyoti sohasida milliy mutaxassislarni tayyorlash, ta‘lim tizimini muntazam ravishda takomillashtirib borish, ijodkorlarni, iqtidorli yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy muhofaza qilish hamda soha muassasalarining moddiy-texnik negizini mustahkamlashni davlat yo‘li bilan qo‘llab-quvvatlash, milliy san‘atimizning kelajagini belgilab beradigan yosh iste’dodlarni izlab

topish va ularni ijodiy o‘stirishning izchil tizimini yaratish, O‘zbekistonda va xorijda keng ko‘rgazma faoliyati orqali milliy san’atimiz yutuqlarini dunyo jamoatchiligiga tanitish, simpoziumlar va boshqa anjumanlar o‘tkazish, jahon madaniyati va san’ati ustalari bilan ilg‘or tajribalar almashish kabi vazifalarni amalga oshirib bordi. [2].

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Bu davrga kelib o‘zbek san’ati mahalliy rassomlar ijodida birinchi marta zamonaviy san’atning turli ko‘rinish va yo‘nalishlarida asarlar paydo bo‘ldi. Moybo‘yoq texnikasida asarlar keng ko‘lam yozdi, hayot voqeligi haqqoniy, kundalik turmush yangiliklari qalamga olindi, grafikada estamp san’ati rivoj topdi. Shu yillarda rassomlar birinchi bor avtoportret san’atida qalam tebrata borlidilar, haykaltaroshlikda materialda ishlangan asarlar (yog‘och, metal) paydo bo‘ldi. Kino-teatr dekoratsiyasi ishlandi. [3].

Me‘morlikda katta me‘moriy majmualar yaratish ishlari amalga oshirildi. Bu ishlar ayniqsa, O‘zbekistonning yangi poytaxti Toshkent shahrida sezilarli bo‘ldi. Shu davrda birinchi bor milliy san’atda o‘ziga xos uslub yaratish harakati yuzaga keldi. Rassom va haykaltaroshlar shu maqsaddan kelib chiqib o‘tmish san’ati an‘analarini o‘rgana boshladilar. Ayniqsa o‘rta sharqning buyuk mutafakkirlaridan bo‘lgan Alisher Navoiy tavalludining 500 yilligi munosabati bilan o‘tqaziladigan tadbirlar shu izlanishlarni jonlantirib yubordi. Milliy an‘ana va uslublardan foydalanib zamonaviy uslub yaratishga intilish jonlandi. Bu san’atning plastik tomonini belgilovchi muhim omil bo‘ldi. Bu izlanishlar san’atning deyarli hamma turlarida o‘z ifodasini topa bordi. 1920-yillarda O‘zbekistonda ko‘plab maktab va studiyalar tashkil etilib ularning atrofiga mahalliy yoshlar ham to‘plana boshlandi. [4]. Ularning ko‘pchiligi keyinchalik Moskva, Peterburgga, Penzaga va boshqa shaharlarda oliy badiiy bilim borasidagi malakalarini oshirib taniqli rassomlarga aylandilar.

30-yillardan boshlab keng ko‘lamda turli ko‘rgazmalar uyushtirish yo‘lga qo‘yildi. Moskvada o‘tkazila boshlagan san’at dekadalari, butun-ittifoq va respublika badiiy ko‘rgazmalari an‘ana tusiga aylandi. Shu yillarda birinchi bor o‘zbek rassomlarining asarlari na faqat respublika shahar va qishloqlarida, balki o‘zga mamlakatlar ko‘rgazma zallarida ham namoish etila boshlandi. Mahalliy yoshlar Moskva, Peterburg va boshqa shaharlarda ijodiy safarda bo‘ldilar, ularining ishlagan asarlari Moskva Sharq xalqlari muzeyi, Tretyakov galereyalari uchun olindi. So‘zsiz, bu tadbirlar bo‘lajak rassomlarning dunyo qarashini shakllanishiga va professional san’at sirlarini chuqur o‘zlashtirishlari uchun muhim omil edi. Lekin, afsuski bu tadbirlar asta chegaralanib 30 yillardan boshlab chet el bilan bo‘lgan aloqalar, ko‘rgazma va konkurslar o‘tkazishlar cheklanib borildi. Chet ellarga ko‘rgazmalar bilan chiqish yoki chet el san’ati ko‘rgazmalarini sovet davlati shaharlarida,

respublikalarda tashkil etish taqib ostiga olindi. 20-yillarning o'rtalaridan boshlangan bu taqib 50 yillarning o'rtalarigacha davom etdi. "Sof sovet san'ati" davri boshlandi.

NATIJALAR

Tasviriy san'at. 20 – 30-yillar o'zbek milliy tasviriy san'at shakllanish yillari bo'ldi. Milliy uslub rivojlanib bordi. O'zbek zamonaviy san'ati o'zining bir tomonida O'rta Osiyo milliy san'atiga xos uslub ham, Yevropa realistik san'ati uslubi, yangi shakllanib kelayotgan avangard ko'rinishlariga tayangan holda shakllandi. U yoki bu uslubni aynan qaytarib yoki tahlil qilib emas, balki davr talabi, g'oyaviy yo'nalishi va ijodkorning shaxsiy qarashi va professional mahorati asosida ishlanib o'ziga xos qaytarilmas joziba kasb eta bordi. Bu xususiyat, ayniqsa yubileyilar o'tqazish, jahon adabiyoti vakillarining asarlarini o'zbek tiliga tarjima qilish va chop etish munosabati bilan keng rivoj topdi. Jumladan, A.Navoiy yubileyini o'tqazish davrida shu xol jonli bo'ldi Asarlari to'plami chop etildi, unga illyustratsiya ishlash ishlari qizib ketdi. Rassomlar davr ruhi, Navoiy davri asarlari bilan yaqindan tanishdilar, Behzod va uning shogirdlari asarlari qayta ko'rib chiqila boshlandi, ularning ijodi o'rganildi. Shu yillarda birinchi bor buyuk mutafakkir A Navoyining ikonagrafik portretiga tanlov e'lon qilindi. Uning g'olibi O'zbekistonga 20 yillarda ko'chib kelgan va shu yerda o'z vatanini torgan Vladimir Kaydalov yaratgan portret asos qilib olindi. Peterburglik haykaltaroshning Navoiy haykali esa materialda ishlandi dastlabki yodgorlik bo'ldi.

30-yillardan o'zbek portret san'atining shakllanish va rivojlanish davri bo'ldi. Bu yillarda milliy portretchilar yetishib chiqa boshladi. Yuqorida tilga olgan A.Siddiqiy, O'rol Tansiqboyev. keyinroq Baxrom Hamdamiy, Latif Nasriddinov, Sh.Xasanova kabi mahalliy rassomlar yaratgan portretlari bilan tanildilar. Shu yillarda avtoportret keng ko'lamda ishlandi. 20 yillarning ikkinchi yarmi 30 yillarning boshlarida badiiy hayotda faol ishtirok etib grafika va rangtasvirida o'ziga xos asarlari bilan ko'pchilik diqqatini o'ziga qaratgan, o'z asarlari bilan xorijiy mamlakatlarda ko'rgazmada ishtirok etishga muvassar bo'lgan rassomlardan biri O'rol Tansiqboyev edi. Uning 1927-yili chizgan "O'zbek portreti" asari Filodelfiya (AQSH, 1934), Moskvada (1934) da namoish etilgan. Uning qalam, rangli qalam, guash bo'yog'ida chizgan rasmlari, moybo'yog'da bajargan kompozitsiyalari o'zining badiiy yechimi va mavzu tanlash bilan ajralib turadi. Ohangdor, yorqin rangli, o'ziga xos kompozitsiyalari ("Moviy eshak", "O'tovda" va boshqalar) rassomning shu davrdagi ijodiy izlanishlarini namoyish etadi. [5].

Bahrom Hamdamiy (1910 – 1943) birinchilardan bo'lib zamonaviy o'zbek rangtasvirga kirib kelgan rassom va pedagoglardan hisoblanadi. Toshkentda tavallud topgan bu rassom shu yerda tasviriy san'at asoslarini egallab 30 yillarda ijod borasida tez ko'zga ko'rina bordi. San'atni targib etib, tarbiya berish bilan shug'ulandi. Rassom ham shu davrning mavzusi choyxonaga murojat qilib, shu mavzuda zamonning

yangilik va g'oyalarini, ruhi va mazunini yoritishga harakat qildi. Uning "Qizil choyxona" (1933, asar ikki variantda ishlangan bo'lib uning bir varianti Moskva ko'rgazmasidan (1934) keyin Sharq xalqlari muzeyiga olingan) asarida kishilar orasidagi munosabat, jamiyatdagi o'zgarishlar shu choyxona ko'rinishini va unda qizgin baxslashayotgan odamlar, devordagi reproduktor va portret orqali, aks ettiriladi.[6].

Urush yillari plakat san'ati yetakchi o'rinni egalladi. Bu san'atda nafqat grafik rassomlar balki san'atniig boshqa turida ijod qilgan san'atkorlar ham faol ishtirok etaboshladilar. O'zbek rassomlar plakatchi birlashmalari tuzildi. O'zbekiston Rassomlar uyushmasi 21-iyun 1941-yilda bo'lgan tezkor kengashida esa so'ngi habarlari asosida tezkorlik bilan operativ plakatlar chiqarib turish haqida qaror qabul qilindi. 1941-yil sentabr oyida O'zTAG (O'zbekiston telegraf agentligi) oynasi dastlab Toshkentda keyinroq uning filiallari Samarqand, Buxoro, Farg'onada ham tashkil etildi.

Urush yillari tasviriy san'at ustalari ham sermahsul ijod qildilar. Bu borada tasviriy san'atning barcha janrlarida vatanparvarlik, insonparvarlik, jasorat mavzular bosh mavzuga aylandi. Yaratilgan portretlar, polotnolar, karikatura, plakatlar dolzarb mavzuga muvofiq ishlandi. O'zbekiston rassomlari urush yillari 216 ta portret, 36 ta devoriy gazeta, 36 ta plakat, 180 ta etyud yaratib, 18 ta ko'rgazma uyushtirdilar. Urush yillari O'zbekistonda A. Abdullayev, O'. Tansiqboyev, M. Reyx, Karlov, V. Rojdestvenskiy, V. Kedrin, K. Cheprakov, N. Kashina, V.Kaydalov, A. Zile, B. Hamdamiy kabi rassomlar ijod qildi. N. Kashinaning "Hamma narsa g'alaba uchun", "Men sening uchun qasos olaman, aka!", V. Ufimsevning "Qo'lingni tort!", "Nemis bosqinchilariga o'lim!", "Biz uchun kanal, dushman uchun go'r", "Dnepr uchun olg'a", A. Abdullayevning "Qizil Armiyaga jo'natish", "Mukofot uchun tabriklash", O'. Tansiqboyevning "Kavaleriya atakasi" va "Partizanlar" kabi asarlari yaratildi. O'.Tansiqboyev 1942 yilning uch oy davomida frontda bo'lib, voqealarni o'z ko'zi bilan kuzatdi. U o'z taassurotlari asosida "Urush yo'llaridan" nom ostida 15 polotnosini yaratdi.

O'zbekiston rassomlari uyushmasi Moskva va Leningrad shaharlari, Ukraina va Belorussiyadan kelgan rassomlar hisobiga 100 tadan 250 nafarga ko'paydi. [7].

1942 yilda ko'chirib keltirilgan rassomlar 96 kishi bo'lsa, 1943 yilda ular 206 nafarga yetdi. 96 kishidan 57 tasi Toshkentga, 39 nafari Samarqandga ishga joylashtirildi. Urush yillari S. Muhammedov, A. Roziqov, R. Temirov, Z. Inog'omov kabi rassomlar yetishib chiqdi. 1943 yilda tasviriy san'at ustalari tayyorlaydigan 2 ta o'quv yurti ochildi. Birinchisi Toshkentda ochilgan bo'lib, unda rassomlar va grafiklar, dekorator-rassomlar va ornamentalist rassomlar tayyorlandi. Ikkinchisi

Samarqanddagi binokorlik san'ati va kulolchilik san'ati xodimlarini tayyorlovchi badiiy hunar o'quv yurti edi.[8].

XULOSA

Xullas, Sovet hokimiyatining boshqa sohalarida bo'lgani kabi san'at sohasida ham hukumatning qattiq nazorati o'rnatildi. Jumladan, tavsiriy san'at sohasida ham jamiyat hayotida ro'y berayotgan voqealarning tasviriga e'tibor berildi. Urushdan keyingi yillar asar yaratish tamoyillari urush yillari hikoyanavislik uslubini davomida o'z aksini topdi. san'atning g'oyaviy tomoni sotsialistik realizm asosini tashkil etdi va hikoyanavis, birodarlik an'analari ruhida ishlangan asarlar yetakchi o'rinni egalladi. Bu xususiyat tasviriy san'atning hamma tur va janrda mavjud bo'lsa ham, lekin maishiy janrda sezilarli edi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

- 1.Халқ сўзи, 1997 йил 23 январь.
- 2.Ўзбекистон Республикаси Ҳукуматининг қарорлари тўплами, 1997 й., 3-сон
3. 5. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т., 2007. – Б.155.
- 4.Зиганшина Н. Книжное искусство Ўзбекистана. – М., 1965.
5. Абдуллаев Н. Ўзбекистон санъати тарихи. – Т., 2007. – Б.155
6. Раҳманкулова И.А., Художественная жизнь Самарканда в годы Великий Отечественной войны 1941-1945 гг. Автореф...дисс.канд.искус.наук. –Т.: 1990. –С. 9-12.
7. Хотира китоби. Ўзбекистон Республикаси 1941-1945. –Т.: Қомуслар Бош таҳририяти нашриёти, 1995. –Б. 39.
8. Абдуллаев Н.У. Пейзажная живопись Ўзбекистана. Г.А.Пугаченкова, Л.И.Ремпель, История искусств Ўзбекистана с древнейших времен до середины. – Искусство Советского Ўзбекистана. – М., 1976